



## XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 29-aprel

VII-9-60-7-96-K/25

Kattaqo'rg'on tumani

### **Tuman mahalliy budgetining erkin qoldiq manbalaridan foydalanish to‘g‘risida**

“2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi KQ-331-IV-sonli Qarori, 2024-yil 29-noyabrdagi KQ-5-V-sonli Qarori, Budget Kodeksining 126-moddasi hamda tuman mahalliy budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilish qaroriga asosan va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi xalq deputatlari tuman Kengashining VII chaqiriq to‘qqizinchi sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ning mahalliy budgetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risidagi taklifi hamda 2025-yil 16-apreldagi tuman mahalliy budgetining qo‘srimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladigan tadbirlarni umumlashtiruvchi komissiyasi yig‘ilishining 4-sonli bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budgetining 2025-yil 1-yanvar holatiga erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan jami 1 388,0 (Bir mlrd. uch yuz sakson sakkiz mln.) mln.so‘m mablag‘ 1-ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi rahbari (Sh.Sultonov)ga ushbu ajratilgan mablag‘lardan maqsadli foydalanish va bajarilgan ishlar bo‘yicha qonunchilikda belgilangan tartibda tuman Kengashiga hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Obbozov)ga tuman mahalliy budgetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, shuningdek tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (N.Vasiyev)ga mablag‘larni amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda budget mablag‘larining to‘g‘ri va maqsadli xarajatga chiqarilishini ta’minlash bo‘yicha shaxsiy javobgarlik mas’uliyati yuklatilsin.

5. Mazkur Qaror ijrosi xalq deputatlari Kattaqo'rg'on tumani Kengashining Mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar bo‘yicha doimiy komissiyasi (A.Xudayberdiyev) va tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Jo‘lmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



NASRIDDINOV  
JAMSHID  
TULKINOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani Kengashining  
 2025-yil 29-apreldagi  
 VII-9-60-7-96-K/25 -son qaroriga  
 1-ilova

**Tuman mahalliy budgetining erkin qoldiq mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida  
 MA’LUMOT**

T/r	Tashkilot nomi	Amalga oshiriladigan tadbirlar nomi	Mablag‘ miqdori <i>(ming so‘m)</i>	Asos  <b>(Bir mlrd. uch yuz sakson sakkiz million so‘m)</b>
		Jami:	1 388 000,0	
1	Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	Tumandagi 32-umumiyl o‘rtta ta’lim maktabi qo‘shimcha binosida ilk rivojlanish markazini tashkil etishda zarur bo‘lgan qurilish materiallari sotib olish hamda jihozlash uchun	450 000,0	Kattaqo‘rg‘on tuman hokimligining 2025-yil 16- apreldagi 38/11-201-sonli va Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025- yil 16-apreldagi 02/02-38- 233-sonli xatlari
		Vazirlar Mahkamasining 83-sonli qaroriga asosan tumandagi 14 ta DMTTlari uchun umumta’lim maktablarida qisqa muddadli guruhlari tashkil qilish uchun	350 000,0	
		Tumandagi 14 ta umumta’lim maktab hamda 4 ta DMTTlarga elektron doska sotib olish uchun	288 000,0	
		Ta’lim sifatini oshirish maqsadida 9-11-sinf o‘quvchilarini dars mashg‘ulotlarini onlayn kuzatish uchun 75 ta umumta’lim maktablariga kamera o‘rnatish uchun	300 000,0	